



**PERSONAJLAR NUTQINING BADIY TASVIRDAGI
O'RNI QO'CHQOR NORQOBILNING "BU YERLARDA
HAYOT BOSHQACHA" HIKOYASI ASOSIDA**

MOHINUR QOBULOVA DAVLATBEK QIZI

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Adabiyot inson ruhiyatini oziqlantiruvchi, ma'naviyatini boyituvchi, dunyo-qarashini kengaytiruvchi – so'z san'atidir. Uning har jabhasi insoniyatni barkamollikka yetaklaydi. Badiiy asarlar kitobxonni o'zi bilan sayohatga boshlaydi. Bunda na vaqt, na geografik hudud to'sqinlik qila oladi – adabiyot chegara bilmaydi. Adabiyot xazinasining gavharlari bo'lgan badiiy asarlar, ularning har bir unsurlari ijodkor tomonidan boyitilgan va obrazlilik bilan to'yintirilgan bo'ladi. Qator yozuvchi, adiblarning ijodiy merosini o'qib-o'rganish, ulardan keraklicha xulosalar chiqarish zarur. Ushbu maqolada Qo'chqor Norqobilning "Bu hayotda yashash boshqacha" hikoyasidagi personajlar va ularning nutqi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: personaj, inson obrazi, personaj nutqi,

Abstract: Literature is the art of words, which nourishes the human spirit, enriches his spirituality, and expands his worldview. Every aspect of it leads humanity to perfection. The works of art take the reader on a journey with him. Neither time nor geographical area can prevent this - literature knows no borders. Artistic works, which are jewels of the



literary treasure, each of their elements is enriched and saturated with imagery by the creator. It is necessary to read and study the creative heritage of a number of writers and writers and draw appropriate conclusions from them. This article discusses the characters and their speech in the story "Living in this life is different" by Kochkor Norqabil.

Key words: character, human image, character speech

Абстракт: Литература — искусство слова, питающее дух человека, обогащающее его духовность, расширяющее его мировоззрение. Каждый ее аспект ведет человечество к совершенству. Произведения искусства берут читателя с собой в путешествие. Ни время, ни географическое пространство не могут этому помешать — литература не знает границ. Художественные произведения, являющиеся жемчужинами литературного сокровища, каждый их элемент обогащен и насыщен образностью творца. Необходимо прочитать и изучить творческое наследие ряда писателей и писателей и сделать из них соответствующие выводы. В данной статье рассматриваются персонажи и их речь в рассказе Кочкора Норкабила «Жить в этой жизни иначе».

Ключевые слова: характер, человеческий образ, характерная речь

Asosiy qism

Badiiy asarlar dunyoga kelar ekan, unda inson obrazini yaratish, uni jonli tasvirlash muhim ahamiyatga ega Adabiyotshunoslikka doir manbalarda *inson obrazi* ni **personaj** atamasi bilan ifodalanganligini uchratish mumkin.



Personaj – (lot. persona – shaxs, teatr maskasi) – deganda badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq subyekti tushuniladi.¹

Inson obrazini tasvirlash, uning xarakteri, ruhiyati, turmush-tarzi, madaniyati, millati, ijtimoiy mavqesi hattoki dinini to'laqonli ochib berish uchun **personaj nutqi** muhim unsurlardan biri sanaladi.

Qo'chqor Norqobilning "Bu yerlarda hayot boshqacha" hikoyasidagi personajlar nutqi orqali yozuvchi kitobxonga qahramonlar haqida ortiqcha izohlarsiz ma'lumotlar beradi, inson obrazini to'raligicha gavdalantiradi. Hikoya avvalida kelgan jumlagi e'tibor qaratamiz: "Gulduyak momo, tuxum beying, tovug'imiz kuyk bo'пти".² Nutq uch-to'rt yoshlardagi bola tilidan aytilgani, bolakayning sut tishlari tushganligidan "R"ni ayta olmayotgani xayolimizdan o'tadi. Lekin yozuvchi bu haqida hech qanday ma'lumot yozmaydi, bolaning yoshi ham hikoyada keltirilmagan. Demak, birgina nutq orqali ijodkor ko'zda tutgan ma'lumotlar kitobxonga oydinlashadi. Nutq jarayoni ham ikki xil: dialogik hamda monologik kabi turlarga bo'linadi.

Dialogik nutq – ikki yoki undan ortiq shaxslarning suhbatidan yuzaga keladi.

Monologik nutq – bir so'zlovchi tomonidan amalga oshiriladi. Badiiy asarlarda ko'p hollarda personajlarning ichki suhbatini, o'z-o'zi bilan konfliktga kirishuvini ham misol qilish mumkin.

– Keldingizmi? Qachon boraman deyapsiz?

Chol ortidan qamchi yeganday bir chayqalib to'xtadi: "Obbo, yana boshladi!"

Kampirga o'girildi.

– Qayerga? Nima deyapsan?

¹ Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik / D. Quronov. – Toshkent : <<Noshir>> nashriyoti, 2019. – 71 b.

² Bu yerlarda hayot boshqacha, hikoya / Q. Norqobil. – Toshkent, Mutolaa. 2024. – 2 b.



Momo endi gulduradi:

– Talmovsirab tol kesasiz-a? Shundayam ota bo'ladimi-ya? Shu bolani agaram bir joydan orttirib kelgan bo'lsamam, shu bola chippa-chiniminan o'gay bo'lsayam, bir borib ko'ray demaysiz-a. Yo shu bola chiniminan o'gayma-a? Otayam shunday bo'lama?!³

Hikoyadan olingan yuqoridagi parchada monologik nutq ham dialogik nutq ham mavjud. "Obbo, yana boshladi!" degan gapda chol o'z-o'ziga gapirib, monologik nutqni shakllantirmoqda. Kampir bilan chol suhbatida esa dialogik nutqqa misol.

Personajlarning nutqi hikoyada ularning qiziqishlari, e'tiqodlari va maqsadlarini ochib beradi. Nutq orqali qahramonlarning turmush tarzini, ularning hayotga bo'lgan qarashini va ijtimoiy muammolarga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Masalan, hikoya davomida personajlar oddiy va samimiy so'zlar bilan o'z fikrlarini bildiradilar, bu esa o'quvchiga nafaqat hikoya voqealarini, balki qahramonlarning hayotiyliigi va realizmini his qilish imkonini beradi. Yozuvchi shu tarzda personajlarning badiiy qiyofasini yaratadi va ularni haqiqiy odamlar sifatida tasvirlaydi.

– Telponda gaplashib turibmiz-ku.

Chol cho'ntagidan uyali telefonni olib kampiriga ko'rsatdi, ko'rsatmasa gapiga ishonmaydiganday.⁴

"Telponda gaplashib turibmiz-ku" degan iborada chol nutqi orqali o'ziga xos ovozli so'zlashuv ifodasi beriladi. Bu nutqda shunday oddiylik va o'ziga xoslik bor. U odatda telefon orqali muloqot qilish yangi va odatiy bo'lmagan holat sifatida chol uchun hali ham yangilik ekanini bildiradi.

³ Bu yerlarda hayot boshqacha, hikoya / Q. Norqobil. – Toshkent, Mutolaa. 2024. – 2 b.

⁴ Bu yerlarda hayot boshqacha, hikoya / Q. Norqobil. – Toshkent, Mutolaa. 2024. – 2 b.



"Bu yerlarda hayot boshqacha" hikoyasidagi personajlar nutqi badiiy tasvirning muhim unsuri sifatida voqealarning chuqurroq anglash va mazmuniy boylikni oshirish uchun xizmat qiladi. Nutq orqali personajlarning ichki dunyosi, ularning o'ziga xosligi va his-tuyg'ulari o'z ifodasini topadi, shu bilan birga ular yashayotgan muhit va davrning ruhiyatini yoritadi. Har bir personajning nutqi ularning xarakterini ochishda, o'ziga xos dunyoqarashini va hayot falsafasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Hikoyada nutq uslubining ta'sirchanligi va tabiiyligi orqali yozuvchi o'quvchini personajlarning hissiy holatiga yaqinlashtiradi va hikoyaning mazmunini chuqurlashtiradi. Nutqning badiiy tasvirdagi o'rni ana shu ko'rsatkichlar orqali asarning estetik va ijtimoiy qiymatini oshirishda alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўз-бекистон, 2002
2. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
3. Адабиёт назарияси 2 томлик 1-т. – Тошкент: Фан, 1978; 2-т. – Тошкент: Фан, 1979
4. Bu yerlarda hayot boshqacha, hikoya / Q. Norqobil. – Toshkent, Mutolaa. 2024. – 3 b.
5. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik / D. Quronov. – Toshkent : <<Noshir>> nashriyoti, 2019 – 480 b